



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>XALQARO MUNOSABATLAR SOHASI MUTAXASSISLARINI
KASBIY TAYYORLASHDA XORIJIY TILNI O'RGATISH XUSUSIYATLARI**Xodjayev Lutfiddin***Til ta'limi markazi boshlig'i,**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, globallashuv, xorijiy til, mahorat, ko'nikma, madaniyatlarni muloqot.

Annotatsiya: Maqolada talabalarni xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasi kasbiy faoliyatiga yo'naltirishda xorijiy tilning ahamiyati hamda xorijiy tilni o'rgatishda samarali xalqaro muloqot ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishning zarurligi atroflicha ko'rib chiqiladi.

Risolaning kirish qismida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniyatlararo aloqalarning xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o'rnining ahamiyati yoritiladi. Voqealar shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida xavsizlikni ta'minlash va hamkorlikni mustahkamlashda madaniyatlararo bog'liqlik va muloqotning ahamitiga baho beriladi. So'nggi o'n yillik davomida xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar kasbiy tayyorgarlik darajasi va sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar qiyosiy tavsiflanadi.

Asosiy qismda chet tillarini bilish darajasining xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatiga va tashqi siyosat mahkamasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tutgan muhim o'rni tahlil etiladi. Diplomatlar tomonidan mavjud til bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish ularning kamolotga yetishlarida hamda diplomatik xizmat pog'onasidan bardavom ko'tarilishlarida muhimligi muallif tajribasi asosida talqin etiladi.

Ushbu qismda diplomatik xodimlarning xorijiy tilni o'rganishlarida lingvistik, ijtimoiy-madaniy, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalardan iborat mahorat ko'nikmalarini shakllantirish masalasi muhokama qilinadi.

Shuningdek, mazkur qismda diplomatik faoliyatda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi bayon etiladi. Xususan, mentalitetdagi farqlar muloqot va muzokaralar jarayonida nutqiy to'siqlarga olib

kelishi ta'kidlanadi. Shu bois xalqaro munosabatlar sohasida ishlaydigan mutaxassislar kasbiy tayyorgarlik jarayonida tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy muhiti, urf-odati va an'analarini atroflicha o'rganishlari misollar bilan tahlil qilinadi.

Risolada tarjimonlarga qo'yiladigan talablar, tildagi mavjud shevalarni bilishning muzokaralar jarayoniga ta'siri, muhokama qilinadigan mavzularga xos atamalarini o'zlash-tirishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Xulosa qismida xorijiy til nafaqat muloqot vositasi, balki kasbiy faoliyat vositasi bo'lgani uchun ta'lim jarayonida talabalarda chet tilida lisoniy va ijtimoiy kompetensiyani hamda bilimlar asosida mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lishi ko'rsatiladi.

FEATURES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PROFESSIONAL TRAINING OF INTERNATIONAL RELATIONS SPECIALISTS

Lutfiddin Khodjaev

*Head of the Language Education Center,
University of World Economy and Diplomacy
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: international relations, globalization, foreign language, competence, skills, communication, intercultural dialogue.

Abstract: The article examines in detail the significance of a foreign language in guiding students to professional activities in the field of international relations and diplomacy, as well as the need to develop effective international communication skills and competencies in foreign language teaching.

The introductory part of the article highlights the importance of intercultural relations between states and peoples in the system of international relations. The importance of intercultural communication and communication in ensuring peace and strengthening cooperation in different regions of the world is evaluated in the present complex time, when events are rapidly changing. During the last decade, the main requirements for the level and quality of professional training of specialists in the field of international relations are comparatively described.

The main part analyzes the important role of the level of knowledge of foreign languages in the success of international cooperation and in the implementation of the tasks assigned to the foreign policy council. The author's experience interprets the importance of constant improvement of existing language skills by diplomats in their maturation and continuous promotion from the diplomatic service level.

This part discusses the formation of linguistic, socio-cultural, sociolinguistic and discursive skills in foreign language learning of diplomatic staff.

Also, this part describes the need to develop

intercultural communication skills in diplomatic activity. In particular, it is noted that differences in mentality lead to speech barriers in the process of communication and negotiations. Therefore, it is analyzed with examples that specialists working in the field of international relations study the socio-cultural environment, customs and traditions of the country whose language is being studied in the process of professional training.

The article emphasizes the requirements for translators, the impact of knowledge of existing language dialects on the negotiation process, and the importance of mastering terms specific to the topics under discussion.

In the conclusion, it is shown that since a foreign language is not only a means of communication, but also a means of professional activity, the formation of linguistic and social competence in a foreign language, as well as skills and abilities based on knowledge, is a priority in the educational process.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Лутфиддин Ходжаев

*Руководитель Центра языкового образования,
Университет мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

международные отношения, глобализация, иностранный язык, умение, мастерство, межкультурное общение.

Аннотация:

В статье подробно рассматривается значение иностранного языка в ориентации студентов на профессиональную деятельность в области международных отношений и дипломатии, а также необходимость формирования эффективных навыков и компетенций международного общения при обучении иностранному языку.

Во вступительной части работы раскрывается значение межкультурных связей между государствами и народами в системе международных отношений. В настоящее сложное время, когда стремительно меняются события, оценивается важность межкультурных связей и диалога в обеспечении безопасности и укреплении сотрудничества в различных регионах мира.

В работе дано сравнительное описание основных требований к уровню и качеству профессиональной подготовки специалистов в области международных отношений за последние десять лет.

В основной части анализируется важная роль уровня знания иностранных языков в успехе международного сотрудничества и в реализации задач, поставленных перед внешнеполитическим ведомством. На основе

опыта автора интерпретируется важность постоянного совершенствования имеющихся у дипломатов языковых знаний для их дальнейшего карьерного роста. В данной части рассматривается формирование языковых, социокультурных, социолингвистических и дискурсивных навыков дипломатических сотрудников при изучении иностранных языков. Также описывается необходимость развития навыков межкультурного общения в дипломатической деятельности. В частности, подчеркивается, что различия в менталитете приводят к речевым барьерам в процессе общения и переговоров.

В связи с этим специалисты, работающие в сфере международных отношений, в процессе профессиональной подготовки детально изучают социокультурную среду, обычаи и традиции страны, изучаемого языка.

В статье излагаются требования к переводчикам, влияние знания существующих языковых диалектов на переговорный процесс, а также важность владения терминами, специфичными для обсуждаемых тем.

В заключении отмечается, что поскольку иностранный язык является не только средством общения, но и средством профессиональной деятельности, приоритетом в образовательном процессе должно быть формирование языковой и социальной компетенции на иностранном языке, а также умений и навыков, основанных на знаниях.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan keng qamrovli tub o‘zgarishlar xalqaro munosabatlar kabi muhim soha vakillarining faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda.

Globalashuv jarayonlari, xalqaro va madaniyatlararo aloqalar ko‘laminin ijtimoiy hayotimizning turli sohalarida kengayishi strategik jihatdan murakkab davlat vazifalarini hal etishga qodir yuqori malakali yosh mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Agar ilgari xalqaro aloqalar bo‘yicha mutaxassislarga asosan tashqi siyosat idoralari xodimlari, diplomatlar, xalqaro jurnalistlar taalluqli bo‘lishgan bo‘lsa, hozirgi kunda xalqaro munosabatlar sohasi bitiruvchilariga tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha menejer, xalqaro va milliy kompaniyalar xodimi, tarjimon-referent, xalqaro xavfsizlik, nizolarni hal qilish, xalqaro huquqshunos, turizm industriyasi mutaxassisi kabi sohalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Hozirgi bosqichda xorijiy tillar xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislari kasbiy tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Universitetlar gumanitar fanlar mutaxassislari ta‘lim dasturlarida chet tillarini o‘qitish har doim alohida o‘rin egallab kelgan.

“Xalqaro munosabatlar” ixtisosligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘nalishi talabalarining kelgusi mutaxassislikni puxta egallashlarida bir nechta xorijiy tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, kamida 2–3 ta tilni egallash kelajakda ularning malakali mutaxassis bo‘lib yetishish yo‘lida ilk qadam hisoblanadi. Shu bois, xorijiy til ta‘limini tili o‘rganilayotgan davlatlar va xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi yutug‘lariga oid materiallar asosida tashkil etish juda muhimdir¹. Xorijiy tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniy merosi bilan tanishish badiiy tafakkurning ichki ehtiyojiga va madaniyatni shakllantiruvchi asosiy omillaridan biriga aylanishi kerak².

Ushbu muammoning dolzarbligi ko‘p omillarga bog‘liq, ammo eng muhimi shundaki, hozirgi bosqichda chet tilining ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va umumiy-madaniy taraqqiyotning ta’sirchan va samarali omili sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, xalqaro munosabatlar sohasida mutaxassislarni tayyorlash davlat vazifasidir, chunki mamlakat tashqi siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy masalalarini muvaffaqiyatli hal etish ularning kasb mahoratiga bog‘liqdir.

Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlararo aloqalar xalqaro munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda jahonning turli mintaqalarida boshqa xalqlarning madaniyati ta’sirida bo‘lmagan etnik jamoalarni topish juda kam uchraydi. Buning natijasida turli mamlakatlar davlat organlari va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi bevosita aloqalar va madaniy almashinuvlar faol rivojlanib bormoqda³.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yillik davomida xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar kasbiy tayyorgarlik darajasi va sifatiga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada o‘zgardi.

Mustaqil O‘zbekiston diplomatiyasida ham mehnatga qobiliyatli, keng fikrlovchi, bilimdon, vazmin, sabrli, bosiq, tahlil qilish, o‘z mamlakatining ijobiy imijini yaratish, odamlarni jalb qilish va ularga qabul qiluvchi davlatning tashqi siyosatini shakllantirishda ta’sir ko‘rsatish fazilatlariga ega bo‘lgan yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga doimo ustuvor ahamiyat beriladi.

Diplomatik xodim faoliyatida chet tillarini bilishning o‘rni. Qadim zamonlardan beri xalqaro munosabatlar sohasi chet tillarini bilishga asoslangan madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

¹ Рябова М.В. Культура и язык как фундаментальные составляющие межкультурного общения.

https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-1_75.pdf

² في كتابة التقارير، عبد العزيز الحر، نوزاد عبد الرحمن الهيكلي 2023، المعهد الدبلوماسي بدولة قطر 101-99

³ Рябова М.В. Культура и язык как фундаментальные составляющие межкультурного общения.

https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-1_75.pdf

Xalqaro muloqotda taraqqiyot va samaradorlikka ta'sir etuvchi barcha omillardan asosiysi – bu til, madaniyat, urf-odatlar, mafkura, din, xorijiy davlatlar qonunlari va boshqalar. Aynan til muzokaralar muhitini yaratish muvaffaqiyatining bosh omili hisoblanadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, hamkor sherikning tilini bilish maqsadga erishish yo'lida muhim, qo'shimcha vosita hisoblanadi.

Asrimizning hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarida xalqaro aloqalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalariga daxldor idoralar xodimlariga qo'yiladigan asosiy, o'ziga xos malaka talabi sifatida bir yoki bir nechta xorijiy tillarni chuqur o'rganishni nazarda tutadi.

Bugungi zamonda amalda har bir elchixona o'zining ko'p funksiyali vakolatlari doirasida qabul qiluvchi, ya'ni mezbon davlatning tegishli vazirliklari va idoralari hamda ushbu malakatda faoliyat ko'rsatadigan diplomatik korpus bilan doimiy ravishda faol yozishmalarni olib boradi. Bularning barchasi tarjima va texnik ishlarni puxta tashkil etishni taqozo etadi. Ammo ko'pgina mamlakatlarning xorijiy vakolatxonalari shtat birligida tarjimon lavozimi ko'zda tutilmaydi.

Elchixonaga mamlakat Tashqi ishlar vazirligidan keladigan turli topshiriqlar, xususan, respublika Rahbarining tashqi siyosat, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining dolzarb masalalari borasidagi bayonotlari, nutqlari, xorijiy davlatlarga tashriflari yoxud chet el mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining O'zbekistonga safarlari va hokazolar haqida tezkor xabarlarni mezbon tomon tiliga o'girish til bilishning diplomat faoliyatida qanchalik muhimligini amalda namoyon etadi.

Bunday ishning asosiy og'irligi asosan diplomatik vakolatxona xodimlari yelkasiga tushadi. Ma'lumki, xorijiy mamlakatda elchixona ochish, uning faoliyatini tashkil etish vakolatxona diplomatik va ma'muriy-idoraviy xodimlari uchun turar joy, transport vositalari ajratish va boshqa moliyaviy masalalar katta hajmda davlat budjetidan mablag' ajratishni talab etadi.

Chet tillarini bilish darajasi xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatiga va tashqi siyosat mahkamasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Diplomatlar tomonidan mavjud til bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish, ularning kamolotga yetishlarida hamda diplomatik xizmat pog'onasidan bardavom ko'tarilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajribali diplomatlar mahalliy tilni hatto boshlang'ich bosqichda bo'lsa ham bilish diplomatga nisbatan suhbatdoshida xayrxohlik munosabatini uyg'otadi, muvaffaqiyatli faoliyati uchun poydevor yaratishga yordam beradi hamda uning mezbon mamlakatda siyosiy, iqtisodiy,

ilmiy-akademik, tahliliy markazlar, ommaviy axborot vositalari va diplomatik korpus vakillari orasida ehtiromi va obro'sini mustahkamlashga xizmat qilishini doimo ta'kidlaydilar.

Taniqli ustoz olim, sharqshunos, arab tili bilimdoni, tajribali o'zbek diplomati Shamsiddin Boboxonov til bilishning ahamiyati to'g'risida diplomatik xodimlarga quyidagilarni alohida uqtirardilar: "Muloqot muvaffaqiyatining teng yarmi tilni bilishga bog'liq. Chunki suhbatdosh tilida to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borish unda sizga nisbatan xayrixohlik kayfiyatini uyg'otadi va sizning hamkoringizga hurmatingizni ko'rsatishga yordam beradi. Ma'ruza yoki hujjat matni arab tiliga shunday tarjima qilinishi zarurki, mezbon tomon uning tarjima ekanligini bilmasligi darkor".

Bu so'zlarga shuni qo'shimcha qilib aytish mumkinki, tilni o'zlashtirish til va mamlakat tarixi, uning urf-odatlarini, madaniyati, milliy mentalitetini o'rganish bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Ayni paytda diplomatiya tili, xususan, xalqaro siyosat tili sifatida jurnalistikadan, ba'zan hissiy-lingvistik tildan sezilarli darajada farq qiladi. Garchi adabiy tilni yuqori darajada bilish diplomat faoliyatida juda muhim bo'lsa-da, diplomatiya tili ma'lum darajada adabiy, badiiy va majoziy ifodalash tilidan ajralib turadi⁴.

Diplomatik hujjatlar shakl va lisoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni yozishda nimani yozish masalasigina emas, uni qay yo'sinda yozish masalasi muhim bo'lib, diplomatik xodimdan chuqur malaka va katta tajribani talab etadi. Diplomatik yozishmalarda hujjat turini uning mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri tanlash va yozish qonun-qoidalariga amal qilish, hujjat yo'llanayotgan mamlakat urf-odat va an'analari hisobga olish zarurdir.

Xalqaro munosabatlar rivojining hozirgi bosqichi diplomatlardan xalqaro hamkorlikni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy muammolarni hal qilishda chet tilini muloqot vositasi sifatida bilishni talab qiladi.

Chet tillarda so'zlashuvchi diplomatlar xorijiy manbalardan tarjimonsiz tezda ma'lumot olib, Markazga yetkaza oladi. Diplomatik xizmat xodimi chet tillarini mukammal bilishi kerak. Mezbon davlat tilida gaplashmaslik ishda katta kamchilikdir. Ko'pincha tilni bilmaslik xorijiy hamkasblar bilan samarali aloqalarni o'rnatishda birinchi to'siq bo'ladi. Shu bois, chet tilini bilish zarur⁵.

Kommunikativ-nutq komponentini shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

chet tilini yuqori darajada bilish, kasbiy muammolarni hal qilish uchun chet tillaridan foydalanish qobiliyati;

⁴ Попов В.И. Современная дипломатия, п.34–35. Москва 2003 (Ин Руссиан)

⁵ عبد العزيز الحر، الدبلوماسية والقيادة والقوة، المعهد الدبلوماسي بدولة قطر، ص 60-61، دوحة 2022م.

belgilangan vazifalar doirasida chet tilida muloqot, yozishmalar, muzokaralar olib borishga tayyorlik va qobiliyat;

ogʻzaki va yozma nutqda rasmiy va norasmiy muloqot normalarini hisobga olish qobiliyati;

zarur hollarda muloqot jarayonida yozma va ogʻzaki strategiyalardan foydalanish;

kasbiy-professional materiallarni chet tilidan oʻzbek tiliga va oʻzbek tilidan xorijiy tilga ogʻzaki va yozma tarjimalarni bajarish qobiliyati;

chet tillarida professional aloqalarni oʻrnatish va professional muloqotni rivojlantirish usullarini bilish;

oʻz fikrlarini erkin va ishonarli shakllantirib, ularni suhbatdoshga yetkazish qobiliyati;

suhbatdosh ehtiyotkor yoki hatto dushman boʻlsa ham, uning eʼtiborini oʻziga jalb qilish qobiliyatiga ega boʻlish;

xorijiy tilda diplomatik hujjatlar, bitimlar, shartnomalar, tadbirlar dasturlari loyihalarini tayyorlash va rasmiylashtirish;

madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyati;

tashkilotchilik va muloqot qobiliyatlari.

Kommunikativ til kompetensiyasi lingvistik, ijtimoiy-madaniy, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalarni oʻz ichiga oladi.

Lingvistik kompetensiya – bu til normalari va qoidalarini hisobga olgan holda mazmunli ogʻzaki va yozma bayonotlar qila olish. U fonologik, leksik va grammatik kompetensiyani oʻz ichiga oladi.

Fonologik kompetensiya chet tilining urgʻusiz aniq talaffuzi va intonatsiyasini oʻzlashtirishni oʻz ichiga oladi.

Leksik kompetensiya leksik birliklarni egallash darajasini aks ettiradi. Chet tilini oʻrganishning oʻrta va yuqori bosqichlarida xalqaro munosabatlar / diplomatiya sohasidagi professional lugʻatga katta eʼtibor beriladi.

Grammatik kompetensiya chet tilidagi kasbiy va ishbilarmonlik nutqining sintaktik va morfologik xususiyatlarini bilish bilan taʼminlanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya til hamjamiyatining vakillari ega boʻlgan bilimlarni, shuningdek, maʼlum bir milliy madaniyatga xos boʻlgan til birliklarini oʻzlashtirishni oʻz ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy lingvistik xususiyatlarni bilmaslik madaniyatlar oʻrtasidagi aralashuvga olib keladi va muloqot jarayonini murakkablashtiradi.

Ijtimoiy lingvistik kompetensiya bo'lajak mutaxassisga boshqa ijtimoiy-madaniy va sotsiologik sharoitlarda munosib nutq xatti-harakati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Diplomat faoliyatida chet tilining o'rni shunchalik kattaki, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari orasidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining davlat xizmatchisi lavozimiga nomzodlar kamida ikkita chet tilini bilishi, chet tilini bilish darajasi oliy ta'lim muassasasi dasturiga muvofiq tasdiqlanadi. Ba'zi hollarda, bakalavriat dasturini tamomlagan va noyob xorijiy tillarni biladigan universitet bitiruvchilari ham qabul qilinishlari mumkin.

Madaniyatlararo muloqotning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati. Mentalitetdagi farqlar muloqot va muzokaralar jarayonida nutqiy to'siqlarga olib kelishi mumkin. Turli tillarda gaplashadigan va boshqa madaniyatlarga mansub insonlar dunyoni boshqacha qabul qilishadi⁶. Kelajakda xalqaro munosabatlar sohasida ishlaydigan mutaxassislar chet tili bilan birgalikda madaniyatlararo muloqotni, ya'ni tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy muhiti, urf-odati va an'analarini atroflicha o'rganishlari darkor.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab xalqaro savdo kompaniyalari ularning rahbarlari turli madaniyatga mansub bo'lishgani uchun ishbilarmonlik muzokaralarini olib borishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Hozirgi zamonda xalqaro biznes ko'plab omillarga, avvalo, muloqot jarayonida madaniy to'siqlarni qanchalik muvaffaqiyatli yengib o'tganiga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Xorijiy tilni bilish darajasi, shubhasiz, muzokaralar natijalariga ta'sir qiladi⁷. Bugungi kunda xalqaro kompaniyalarda ishlashning zaruriy shartlardan biri chet tilini yuqori darajada bilishdir. Misol tariqasida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan "GM", "Chevrolet", "HUAWEI", "SAMSUNG", "LG", "ACWA POWER", "MASDAR", "MUBADALA" kabi yuzlab xorijiy mamlakatlarning yirik kompaniyalari o'z xodimlaridan ingliz tilini bilishlarini talab qiladi.

Muloqot uslubiga alohida e'tibor qaratish darkor. Har qanday madaniyatda ushbu omil muhim rol o'ynaydi. Masalan, amerikaliklar va inglizlar uchun muloqotning interaktiv uslubi to'g'ri keladi. Unda ma'ruzachiga savollar berish, izoh va mulohazalarni taqdim etish va o'z his-tuyg'ularingizni ifoda etish mumkin. Agar suhbatdoshning suhbatida hech qanday savol tug'ilmasa, ma'ruzachi tomonidan biror narsa noto'g'ri aytilganligi haqidagi fikrga olib boradi⁸.

Nemislarining nuqtayi nafari boshqacha. Ular, birinchi navbatda, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash va shundan keyingina aniq ifodalangan savollarni berish mumkin, deb biladilar.

⁶ Gibson Robert. Intercultural Business Communication. Oxford University Press, 2002 111p.

⁷ Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, пп. 26–31

⁸ Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.6.

Finlyandiya, Yaponiya va Koreya vakillarining bu boradagi mavqelari/pozitsiyasi qiziq. Ular o'z suhbatdoshlarining nutqi tugashini kutmasdan hech qachon suhbatga kirmaydilar. Yaponlar notanishlar bilan gaplashganda, dastlab jim bo'lishadi, keyin hamkorining samimiyligini tushunish maqsadida javob berishdan oldin uzoq fikr yuritishadi. Sukunat Yaponiyada tez-tez ishlatiladigan muloqot vositasi bo'lib, u xushmuomalalikni ifodalaydi.

Shuni esda tutish kerakki, har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Taqqoslash uchun turli madaniyatlarning ko'rinishlaridan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz. Inglizlarga xos bo'lgan xislatlar – bu hazil-mutoyiba, istehzo, imo-ishoralar, yashirin ma'nolar va aytilmagan fikrlar. Nazarimda inglicha bir ibora – jumla juda qiziq: *I don't think it's a very good idea – Men bu juda yaxshi fikr deb o'ylamayman*. Bu biror narsaga o'z salbiy munosabatini bildirishda aytiladi. Agar shu fikrni *It's a bad idea – Bu yomon fikr* jumlasini bilan ifodalansa, ushbu bayonot boshqalar tomonidan to'g'ridan to'g'ri va ma'lum darajada qo'pollik sifatida qabul qilinadi. Xorijiy hamkorlar bilan muloqot jarayonida bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik kerak⁹.

Muloqot jarayoni nafaqat og'zaki nutqdan, balki paraverbal hodisalar (masalan, nutq tezligi, to'xtashlar, ovoz balandligi va boshqalar) va og'zaki bo'lmagan til uslubi (mimika, imo-ishoralar, o'tirish tarzi, suhbatdoshgacha bo'lgan masofa va boshqalar).

Turli madaniyatlarda bir xil belgilar boshqa ma'noni anglatishi mumkinligini doimo esda tutish muhimdir. Turli mamlakatlar xalqlari imo-ishoralarini bir xil ma'noni ifodalamaydi, aksincha har xil madaniyatlarda ko'p hollarda qarama-qarshi fikrni anglatadi¹⁰.

Bir mamlakatda bu oddiy deb hisoblansa, boshqasida u haqoratli va tahqirli sa'y-harakat sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, qoshlarini chimirgan ingliz kishisi suhbatdoshining gapiga shubha bilan qaraydi, nemis madaniyati vakili esa bu xatti-harakati bilan hayratlanishini ifodalaydi.

Rang belgilari ramziyligi turli madaniyatlarda tubdan farq qiladi. G'arbiy Yevropa madaniyatlarida qizil rang xavf, muammo, urush (Finlyandiya, Fransiya, Italiya), g'azabni anglatishi mumkin. Sovuq mamlakatlarda bu–quyoshning rangi, issiq mamlakatlarda esa olov rangini anglatadi, chunki olov yong'in va vayronagarchilik xavfini keltirib chiqaradi.

Xitoyda qizil rang baxt rangi, to'ylar ramzi hisoblanadi va omad keltiradi, lekin qizil siyoh bilan xat yozish taqiqlanadi, chunki u "qabul qiluvchini uyda qovurish" istagini ifodalaydi. Qizil rang Germaniya, Shimoliy Yevropa mamlakatlari va Hindistonda sevgi rangi (hind to'yida kelin libosi – sari) timsolidir.

⁹ Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.7.

¹⁰Верещагин И.М., Костомаров В.Г. В поисках новых путей развития лингвострановедения: концепция речеповеденческих тактик. <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-012>

Nemislar qizil rangni hayot bilan bog'lashadi. Agar kimdir kutilmaganda vafot etsa, ular aytadilar: *heute rot, morgen tot / bugun qizil, ertaga o'lik*. Aksariyat mamlakatlarda qizil svetofoor taqiqlovchi chiroqdir. Uydagi qizil chiroq Niderlandiyada (Amsterdamdagi qizil chiroq tumani) butunlay boshqacha talqin qilinadi.

Odamlar bir-biriga nafaqat qanday salom berishlari, shuningdek, bir-birlariga qanaqa gullar taqdim etishlari juda qiziqarli. Ba'zi gullar baxtsizlik va g'am-kulfat bilan bog'liq: masalan, Braziliyada binafsha, Angliya, Kanada va Shvetsiyada oq liliyalar, oq va sariq rang gullar Tayvanda, Meksikada esa sariq rang.

Yevropa madaniyatlarida bir xil oq rang ijobiy ma'noga ega bo'lib, yengillik va poklik rangidir. Sharq mamlakatlarida oq rang motam, qayg'u alam belgisi. Jumladan, oq kiyim O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ta'ziya libosidir.

Qora rang aksariyat mamlakatlarda taxminan bir xil ma'noni anglatadi: motam (Xitoy madaniyatidan tashqari), baxtsizlik, qayg'u, yovuzlik, hasad. Bundan tashqari, Xitoyda qora kiyim kiyish tavsiya etilmaydi.

Meksikada qizil gullarga nisbatan salbiy munosabat mavjud, chunki qadimgi xurofotlarga ko'ra, ular yomon afsun qilishadi.

Xitoy va vyetnamliklar uchun qurigan gullar o'lim belgisi hisoblanadi. Germaniyadagi osiyolik muxojirlar nemis qo'shnilarini o'z xonadonlariga nega qurigan guldastalar qo'yishni tushuna olmaydi. Xitoyda odamlar doimo toq sonli gullar yoki narsalarni berishadi. Ularning nazarida juft raqamlar omadsizlikka olib kelar ekan.

Rossiyada xrizantema ko'pincha ayollarga ham, erkaklarga ham sovg'a sifatida beriladi. Italiya va Fransiyada oq xrizantema barcha dafn marosimiga yoki qabriston ziyoratiga olib kelinadi.

Garchi barcha madaniyatlar raqamlardan foydalansa ham, ular har doim bir xil mazmun kasb etmaydi. Masalan, 4 raqami xitoyliklar uchun yomonlikni angatadi. Chunonchi og'zaki talaffuzi "o'lim"ga o'xshaydi. Shu sababli, Xitoyda ko'plab binolar to'rtinchi qavatga ega emas. Odamlar uylarni, shuningdek, avtomobil yoki telefon raqamlarini raqamlashda 4 raqamidan voz kechishga harakat qilishadi. Ular 4-siz raqam uchun ko'proq pul to'lashdan xursand. Ba'zi Sharqiy Yevropa madaniyatlarida 8 raqami omad, baxt va muvaffaqiyat keltiradi, hatto jannat soni, deb qabul qilingan.

G'arb va AQSHning ba'zi madaniyatlarida 13 raqamiga nisbatan noto'g'ri qarashlar mavjud bo'lib, ular bu baxtsizlik keltiradi, deb bilishadi. Shuning uchun, ko'plab mehmonxonalar va binolarda o'n uchinchi qavat yo'q, o'n ikkinchidan keyin darhol o'n to'rtinchi raqam keladi. 13 raqami bo'lgan uy deyarli uchramaydi. Germaniyada 13 raqami

xurofiy qo'rquvni keltirib chiqaradi, xonalarni, joylarni va hokazolarni raqamlashda o'tkazib yuboriladi.

Muayyan mamlakatga xos bo'lgan kommunikativ xatti-harakatlarning umumiy madaniy me'yorlariga e'tibor qaratish lozim. Ular uning qabul qilingan odob-axloq qoidalarini, xatti-harakatlari va muloyim muomala qoidalarini aks ettiradi.

O'zbek, ingliz va amerika madaniyatlari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, o'zbeklar odatda rasmiy va norasmiy sharoitlarda qo'l siqishadi. Britaniya va amerikaliklarga kelsak, ular faqat odamlar bilan uchrashganda yoki rasmiy vaziyatlarda qo'l berib ko'rishishni taklif qilishadi. Keyinchalik uchrashganda, ular shunchaki boshlarini qimirlatib, og'zaki nutq bilan hamrohlik qilishadi. Sharqiy Afrikada salomlashish xotin va bolalarning yoki boshqa qarindoshlarning salomatligi, farovonligi haqidagi savollar bilan to'ldiriladi.

Arab mamlakatlarida ayollarga qo'l berilmaydi, Rossiyada tadbirkor ayolga qo'l uzatilmaydi, lekin uning tashabbusini kutadi va hokazo. Aksariyat arab mamlakatlari, xususan, Fors ko'rfazidagi monarxiya davlatlarida Ramazon oyida barcha restoranlar, oshxonalar, qahvaxonalar saharlik tugagandan so'ng oqshomga qadar berkitiladi. Ko'chalarda va ommaviy jamoatchilik joylarida ovqatlanish va tamaki chekish rasman man etiladi.

Shu o'rinda bir qiziq fakti aytib o'tmoqchiman. Yaqin va O'rta Sharq aksariyat mamlakatlarida ko'pincha uchrashganda bir-birini quchoqlab, biroz vaqt qo'llarini ushlagan holatda qoladigan erkaklarni uchratish mumkin.

O'rta Yer dengizi mamlakatlarida erkaklar ham, ayollar ham bir-birlarini yaxshi bilmasalar ham, yuzlaridan o'pish bilan salomlashadilar. Germaniya, Skandinaviya va Buyuk Britaniyada o'pish ayollar orasida keng tarqalgan.

Muloqot jarayonida ko'z bilan aloqaga katta ahamiyat beriladi. Ba'zi Sharq madaniyatlari vakillari muloqotda suhbadosh ko'ziga qarab gaplashishni afzal ko'rishmaydi. Ammo G'arb madaniyati vakillari uchun ko'zga tik qarab muloqotda bo'lish muhim hisoblanadi.

Turli biznes madaniyatlari punktuallikka turlicha munosabatda bo'lishadi – masalan, britaniyaliklar kechikishni odobsizlik deb bilishadi, meksikaliklar va aksariyat arab mamlakatlari xalqlari esa buni yomon odat yoki mas'uliyatsizlik deb hisoblamaydi.

Madaniyatlarda mezbon va mehmon o'zini qanday tutishi haqida ma'lum qoidalar mavjud. Butun dunyoda mavjud bo'lgan uzoq mehmondo'stlik an'analarga asoslanadi. Aksariyat mamlakatlarda mehmondo'stlik buzilmaydigan madaniy qadriyatdir.

Masalan, Germaniyada chet ellik hamkasbini uyga kechki ovqatga taklif qilayotganda, unga aniq vaqt va nimani taklif qilishingiz mumkinligini ko'rsatish muhimdir. Agar mehmon ma'lum oziq-ovqat yoki spirtli ichimliklarni taqiqlashni aytsa (masalan, diniy munosabat tufayli

sabablar va boshqalar), keyin kelganida rioya qilmaslik e'tiborsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

Chet eldagi hamkasblar yoki biznes hamkorlaridan kelgan taklifnomalarda madaniy qoidalarga rioya qilish muhimroqdir. Mehmondo'stlik uzoq an'anaga ega bo'lgan madaniyatlarda (masalan, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, slavyan mamlakatlari yoki Afrika) mezbon o'z mehmoniga hurmat belgisi sifatida taklif qiladi¹¹.

Xulosa sifatida aytish lozimki, xalqaro munosabatlar sohasidagi bo'lajak mutaxassislar kasbiy va lisoniy ijtimoiy-madaniy jihatdan muhim ko'nikma va mahoratlarini tayyorgarlik bosqichida rivojlantirishlari kerak.

Tarjimonlar instituti xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda beqiyos yordam beradi. Qadim zamonlarda muzokaralarda qatnashish, diplomatik yozishmalar olib borish va hujjatlarni imzolash uchun tashqi aloqalar bo'limlari tarkibida chet tillarini biladigan butun bir xodimlar guruhi paydo bo'la boshlagan. **Sitseron** va **Demosfen** asarlarida hujjatlarni o'qish va tarjima qilishga qodir bo'lgan "izohlovchilar"ga oid ma'lumotlar zikr qilinadi. O'rta asrlarda G'arb davlatlarida tarjimonlar faqat rohiblardan iborat bo'lib, ular nafaqat ibodat, balki xorijiy tillarni o'rganish bilan shug'ullangan. Ularni interpretes yoki hermeneuma deb atashgan. 12-asrda ko'plab Yevropa mamlakatlarida tarjimonlar "*dragomanlar*" deb atala boshlandi. Dragoman Yaqin Sharq va Osiyo davlatlari hamda Yevropa diplomatik va savdo vakolatxonalari o'rtasida tarjimon va vositachining rasmiy lavozimidir. Lavozim tarjima va diplomatik vazifalarni ham o'z ichiga qamrab olgan.

O'rta asr musulmon Sharqida xalifalik Devonxonasiga (kanselariya – kotibiyat) diplomatik aloqalar o'rnatish niyatida bo'lgan davlatlarning tillarini yaxshi biladigan oliyjanob va o'qimishli kishilar tayinlangan. Ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan shoir, sayyoh Xoja Samandar Termiziy o'zining "Dastur ul-muluk" ("Podshohlarga qo'llanma") nomli qimmatli asarida "Elchi – podshohning tili", "Komil aql sohibi yuzlab mard lashkarlar yordami bilan uddasidan chiqmaydigan ishni so'z bilan hal qiladi", deb yozgan¹².

Ketma-ket tarjima birinchi marta 1919-yilda Parij tinchlik konferensiyasida amalga oshirilgan. 1928-yilda Kominternning Sovet Ittifoqida o'tkazilgan yalpi Kongressida mikrofon yordamida sinxron tarjima qilish yo'lga qo'yilgan. 1933-yilda esa sinxron tarjimonlar o'z ishlari uchun naushniklardan foydalanganlar. Ammo sinxron tarjima hali ham vaqti-vaqti bilan qo'llanilgan.

¹¹ Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, pp.26–31

¹² A.Madramov, G.Fuzailova. Manbashunoslik, pp 234-235, Toshkent-2008

Sinxron tarjimonlik haqiqiy kasbiy faoliyat sifatida 1945-yil Nyurnberg sudida fashist urush jinoyatchilari ustidan sud jarayonida to'liq shakllangan. 1951-yildan beri nafaqat BMT, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tadbirlarida, shuningdek muayyan bir davlatda xalqaro miqyosda o'tkaziladigan turli forumlar va anjumanlarda ham mustahkam o'rin egalladi.

Tarjimonlar orqali suhbatlashish muzokaralar jarayoniga sezilarli o'zgarishlar kiritadi. birinchidan, tadbirni o'tkazish xarajatlari oshadi; ikkinchidan, amaliy muzokaralar jarayoni uzaytiriladi; uchinchidan, hamkor sheriklar o'rtasida ayrim tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. Biroq, muzokaralar qanday mavzuda o'tkazilishidan qat'i nazar, unda tarjimonning roli juda kattadir. Tarjimon barcha ishtirokchilar e'tiborini bog'laydi, bunda ko'p narsa uning tarjima qilgan narsasiga emas, balki uni qanday bajarishiga ham bog'liq.

Tarjimon ishiga qo'yiladigan talablar:

tilni mukammal bilishi, shevalar bo'lsa, ularni ham o'rganishi kerak. Misol uchun, tarjimon faqat arab adabiy tilini bilsa, arab davlatlarining turli vakillari bilan o'tkaziladigan muzokaralar (Islom hamkorlik tashkiloti, Islom taraqqiyot banki, Fors ko'rfazidagi arab davlatlari uyushmasi) davomida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin;

tarjima asabiy taranglik bilan kechganligi sababli, tarjimon befarq, bo'sh bo'lmasligi, balki sezgir, hozirjavob, yuzaga kelgan vaziyatni hissiyotga berilmasdan, vazminlik va tezkorlik bilan anglashi darkor;

muzokaralar mavzusi, suhbat va tarjima paytida duch kelishi mumkin bo'lgan barcha maxsus atamalarni yaxshi bilishi kerak;

qaysi shaxslarning nutqini tarjima qilishi, so'zlovchining o'zini tutishi, uning mentaliteti va suhbatida ishlatadigan iboralarni yaxshi bilishi zarur;

tarjima imkon qadar aniq bo'lishi kerak. Shu bois tarjimonlarni "so'zlovchining aniq aks sadosi" deb bejiz aytishmagan. Tarjimaning asosiy qadr-qiymati go'zallik yoki badiiylilik emas, balki aniqlikdir:

stenografiyani o'zlashtirish;

tarjimon xotirjam, diqqat-e'tiborli va vazmin bo'lishi kerak. Ayni paytda jizzaki, shuhratparast va hissiyotga beriladigan bo'lmasligi zarur.

Shunday qilib, siyosiy, madaniy, iqtisodiy sohalarida globallashtirish, jahon miqyosida integratsiyalashuv va birlashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoit xalqaro munosabatlar yo'nalishi mutaxassisidan jahon siyosatidagi tendensiya va o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish, tahlil qilish, yaqin va uzoq kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni ko'ra bilish va kasb mahoratini doimo oshirib borishni taqozo etadi.

XULOSA

Xalqaro munosabatlar mutaxassisi jahon taraqqiyotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qirralarini bilishi va tahlil qilishi juda muhim. Shu bois, chet tilini o'rgatishdan asosiy maqsad kasbiy faoliyatning turli sohalarida samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til aloqalari va kommunikatsiyalarini o'zlashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy til nafaqat muloqot vositasi, balki kasbiy faoliyat vositasi bo'lgani uchun talabalarda chet tilida lisoniy va ijtimoiy kompetensiyani hamda bilimlar asosida mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Aytish mumkinki, bugungi kunda xalqaro masalalar bo'yicha mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda kasbiy nutqda madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni o'z ichiga olgan yangi professionallik paradigmasi paydo bo'lmoqda. Suhbatdosh sherigini to'g'ri tushunishga erishishi uchun bo'lajak xalqaro mutaxassis o'quv bosqichida lingvistik ijtimoiy-madaniy xususiyat va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak.

Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o'ziga xos jihati shundaki, ularni nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki vaziyatning kontekstual ahamiyati, mezbon mamlakat til qurilmasining o'ziga xos xususiyatlarini, kasbiy diskurs (nutq) da muloqotni belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni e'tiborga olgan holda kasbiy faoliyat olib borishga tayyorlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdul Aziz Al-Hurr, Nawzad Abdul Rahman Al-Haiqi. The Art of Report Writing, 2023, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp 99–101 (In arabik).
2. Abdulaziz Al-Hurr, Diplomacy, Leadership and Power, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp. 60–61, Doha 2022. (In arabik).
3. Gibson Robert. Intercultural Business Communication. Oxford University Press, 2002 111p.
4. Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.6
5. Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, пп.26–31 (Ин Русциан)
6. Верешагин Й.М., Костомаров В.Г. В поисках новых путей развития лингвостранаведения: концепция речеповеденческих тактик. <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-012> (In russian)
7. Попов В.И. Современная дипломатия, п.34–35. Москва 2003 (In Russian)
8. Рябова М.В. Культура и язык как фундаментальные составляющие межкультурного общения. https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-1_75.pdf (In russian).
9. A.Madramimov, G.Fuzailova. Manbashunoslik, pp 234–235., Toshkent, 2008.